

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/2025.27.12.I.04.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**AITMURATOVA MIYRIGUL JALGASOVNA**

**QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA INNOVATSION  
FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH**

**08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2026**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of Dissertation the abstract Doctor of Philosophy (PhD) in  
Economics Sciences**

**Aitmuratova Miyrigul Jalgasovna**

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish ..... 3

**Аитмуратова Мийригул Жалгасовна**

Развитие инновационной деятельности в сельскохозяйственных  
предприятиях ..... 25

**Aitmuratova Miyrigul Zhalgasovna**

Development of innovative activities in agricultural enterprises ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 53

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/2025.27.12.I.04.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**AITMURATOVA MIYRIGUL JALGASOVNA**

**QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA INNOVATSION  
FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH**

**08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2026**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Iqt5328 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Kudiyarov Kishibay Ramatullayevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Allayarov Piratdin Atabayevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Qurbonov Shovqi Djurayevich**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Yetakchi tashkilot:** **Abu Rayxon Beruniy nomidagi**  
**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.I.04.12. raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «18» 03 soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230113, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel./faks: (998 61) 223-60-78, (998 61) 223-59-25, e-mail: [info\\_karsu@edu.uz](mailto:info_karsu@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (483 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230113, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel./faks: (998 61) 223-60-78, (998 61) 223-59-25, e-mail: [info\\_karsu@edu.uz](mailto:info_karsu@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «12» 03 kuni tarqatildi.

(2026-yil «12» 03 dagi 118 raqamli reestr bayonnomasi).



**J.K.Sauxanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor

**R.B.Utemuratov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, PhD., dotsent

**B.S.Qalmuratov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahon iqtisodiyotidagi raqamlashtirish jarayonlarining kuchayishi va global iqlim o'zgarishlari sharoitida aholining oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat tarmoqlarining xomashyoga talabini qondirishda qishloq xo'jaligini barqaror o'sishini ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mutaxassislar ta'kidlashicha, "iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslar taqchilligining qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishiga salbiy ta'siri kuchaymoqda"<sup>1</sup>. Shunga ko'ra, mamlakatlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikni ta'minlash, ishlab chiqarish resurslardan optimal foydalanishni talab etmoqda. Bu esa, qishloq xo'jaligi tarmog'ida o'sish sur'atlarining barqarorligi va ekologik muvozonatni ta'minlash bevosita agrobiznes subyektlarining innovatsion faoliyatni rivojlantirish bilan uzviy aloqadorligini ifodalaydi.

Dunyoda yuz berayotgan iqtisodiy va ekologik inqirozlar oqibatida yuzaga kelayotgan muammolar qishloq xo'jaligi sohasining barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini o'sishiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa o'z navbatida, qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va agrobiznes sub'ektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishni rag'batlantirish orqali ishlab chiqarish omillari mahsuldorligini oshirish hamda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorlikni ta'minlash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Shu jihatdan, bugungi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish yo'nalishidagi keng ko'lamdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishga innovatsiyalarni keng joriy qilishda rag'batlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamdagi islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni 1,3 barobar oshirish, har gektar yerdan olinadigan o'rtacha daromadni 5 ming dollarga yetkazish, sohada eksport hajmi 10 mlrd. dollardan iborat bo'lishi, suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yer maydonlarini 2 karra oshirish"<sup>2</sup> xususidagi fikrlari innovatsion faoliyatni rivojlantirishning dolzarbligini ifodalaydi. Shu boisdan, qishloq xo'jaligiga innovatsiyalarni tatbiq qilinishi rag'batlantirishni samarali tizimini yaratish,

---

<sup>1</sup>Goodluck, A.; Otieno, D.J.; Oluoch-Kosura, W. The Effects of Multiple Agricultural Advisory Service Providers on Farmers' Productivity in Tanzania. *Community Dev.* 2024, 1–18.; Atchadé, M.N.; Nougbodé, H. Statistical Investigation on The Relationship Between Climate Change, Food Availability, Agricultural Productivity, and Economic Expansion. *Heliyon* 2024, 10, e32520.; Bouteska, A.; Sharif, T.; Bhuiyan, F.; Abedin, M.Z. Impacts of the Changing Climate on Agricultural Productivity and Food Security: Evidence from Ethiopia. *J. Clean. Prod.* 2024, 449, 141793.; Omotoso, A.B.; Letsoalo, S.S.; Daud, S.A.; Tshwene, C.; Omotayo, A.O. Climate-Smart Agricultural Practices, Productivity, And Food-Nutrition Security in Rural South Africa: A Dataset of Smallholder Maize Farmers. *Data Brief* 2024, 55, 110725.; Sleiman, R.; Gerard, J.A.; Fahed, S.; Todorovic, M.; Sellami, M.H.; Albrizio, R.; Saab, M.T.A. Irrigation and Agricultural Opportunities: Evaluating Hemp (*Cannabis sativa* L.) Suitability and Productivity in Lebanon. *Water* 2024, 16, 1865.

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqish va Vazirlar Mahkamasining yaqin va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturi muhokamasiga bag'ishlangan majlisdagi ma'ruzasi. <https://gov.uz/uz/minenergy/news/view/28039>.

agrobiznes subyektlarining innovatsion faolligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ««O‘zbekiston-2030» strategiyasi to‘g‘risida», 2021-yil 3-fevraldagi PF-6159-son “Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 10-iyuldagi PF-6024-son “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2023-yil 7-iyuldagi PQ-216-son “Agrar sohada ilm-fan, ta‘lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 1-martdagi PQ-144-son “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 27-apreldagi PQ-3682-son “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 7-maydagi PQ-3698-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va ushbu sohadagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Qishloq xo‘jaligi korxonalarida innovatsion faoliyatini rivojlantirish, ta‘sir etuvchi omillarni empirik baholash, iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari va innovatsion rivojlanish tendensiyalariga bog‘liq masalalar xorijiy iqtisodchi olimlar Barrientos-Fuentes Juan Carlos, Berg Ernst, Lu S., Zhuang J., Sun Z., Huang M., Karthickmanoj R., Sasilatha T., Lakshmi D., Goyal V., Ali T., Nautiyal, A., Sharma K., Kumar R., Singh S., Bratukhina E., Nagovitsyna E., Tusin D., Mottaeva A., Bidov T., Vretenar Nenad<sup>3</sup> va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘z ifodasini topgan.

---

<sup>3</sup>Barrientos-Fuentes Juan Carlos, Berg Ernst. Impact assessment of agricultural innovations: A review. <https://www.researchgate.net/publication>.; Lu, S., Zhuang, J., Sun, Z., Huang, M., 2024. How Can Rural Digitalization Improve Agricultural Green Total Factor Productivity: Empirical Evidence from Counties in China. Heliyon, 10, e35296.; Karthickmanoj, R., Sasilatha, T., Lakshmi, D., Goyal, V., Ali, T.T., Nautiyal, A., Sharma, K.K., Kumar, R., Singh, S., 2024. Revolutionizing Agricultural Productivity with Automated Early Leaf Disease

Bundan, tashqari, MDH mamlakatlarining iqtisodchi olimlaridan Yu.E. Kirilov, V.G. Granovska, B.V. Koshkalda, L.B., Gnatinshin, O.C. Prokopishin, A.Yu. Mazurova, V.L. Bogdanov, V.I. Stepenev, V.V. Konovalov, D.V. Xodos, K.A. Kalashnikov, A.P. Shindryayeva, I.P. Perushkevich, I.A. Rodionova<sup>4</sup> va boshqalarning ilmiy ishlarida qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarni rivojlantirish, ta‘sir qiluvchi omillar va samaradorlikni baholash, rag‘batlantirish mexanizmini takomillashtirish masalalari o‘rganib chiqilgan.

Shuningdek, mahalliy iqtisodchi olimlar N. Ashurmetova, I. Rustamova D. Djalalova, J.K. Sauxanov, K. Ubaydullaev, A.K. Alimov, B.S. Qalmuratov, A. Amanbayev, U. Nazarova<sup>5</sup> va boshqalarning ilmiy ishlarida qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalarni iqtisodiy baholash, qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarni tijoratlashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy rag‘batlantirishning mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Qishloq xo‘jaligida innovatsion faoliyatni baholashda kompleks samaradorlik ko‘rsatkichlari, omillarni empirik baholash, innovatsion rivojlanishning tendensiyalari kompleks va tizimli tarzda to‘liq o‘rganilmaganligi dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

---

Detection System for Smart Agriculture Applications Using IoT Platform. Environ. Dev. Sustain. 1–17.; Bratukhina E., Nagovitsyna E., Tusin D., Mottaeva A., Bidov T. Assessment of the development of innovative and ecological potential of agriculture. <https://www.researchgate.net/publication.>; Vretenar Nenad, 2025, Technology and innovations in agriculture. <https://www.researchgate.net>.

<sup>4</sup>Кирилов Ю. С., Грановська В. Г. Забезпечення конкурентних переваг аграрних підприємств шляхом впровадження технологічних інновацій у виробничі процеси. Агросвіт. 2019. № 23. С. 3–7.; Кошккалда І. В., Гнатішин Л. Б., Прокопійшин О. С. Інноваційно-інвестиційний шлях відтворення виробничого потенціалу як фактор впливу на конкурентоспроможність фермерських господарств. Аграрна економіка. 2019. Т.12, № 1–2. С. 82–91.; Мазурова А.Ю., Богданов В.Л. Роль ведення органічного сільського господарства в екосистемах стран мира. <https://cyberleninka.ru/article.>; Степенев В. И. Эколого-экономическая обусловленность использования традиционных форм хозяйствования в развитии «органического» сельского хозяйства // Наследие и современность. Информационный сборник. М., 2007.; Коновалов В.В., Коновалова Т.В. Роль научно-технического прогресса в обеспечении устойчивого развития агропромышленного комплекса. Выпуск № 8, Август 2015 г., статья № 1, стр. 2-8.; Ходос Д.В. Инновационная деятельность в сельском хозяйстве региона: подходы к оценке и приоритеты развития. <https://cyberleninka.ru/article/n.>; Калашников К.А., Шиндряева А.П. Роль инновационной деятельности в развитии АПК. <https://www.researchgate.net/publication.>; Перушкевич И.П. Методические аспекты оценки инновационной активности сельскохозяйственных организаций // Вестник Алтайского государственного аграрного университета. 2013. № 7. С. 138-141.; Родионова И.А. Оценка инновационного развития сельского хозяйства России. <https://cyberleninka.ru/article/n/otsenka-innovatsionnogo-razvitiya-selskogo-hozyaystva-rossii>.

<sup>5</sup>Ашурметова Н.А., 2018. Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalarni iqtisodiy baholash tizimlarining tahlili. <https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites.>; Rustamova I.B. Agrar sohada innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslari.– i.f.d. diss. avtoreferati.– Toshkent, 2020. – 77 b.; Djalalova D.D. Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. PhD diss. avtoreferati diss. avtoreferati.–Toshkent, 2023. –556.; Sauxanov J.K. Agrar tarmoqda tashqi samaralarni optimal tartiblashtirish va transaksiya xarajatlarini pasaytirish mexanizmlari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida). Iqt. fan. dok. ilm. dar. ... diss. avtoref. – Urganch, 2022, Ubaydullaev K., Alimov A.K. Природно-экономический потенциал и его влияние в развитии агропромышленного комплекса. Бюллетень науки и практики, 2022. №8, 151-157ст; B.S.Qalmuratov. Mintaqada sanoatni innovatsion rivojlantirishni boshqarish mexanizmi samaradorligini oshirish strategiyasi Bosma Monografiya. Toshkent.: Innovatsiya-Ziyo” nashriyoti, 2022. 256 b. 16 b.t; Amanbaev A.O. Suv resurslarini samarali taqsimlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida). PhD diss. avtoreferati. Nukus – 2024. –57b.; Nazarova U. A. Qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarni tijoratlashtirish mexanizmini takomillashtirish yo‘llari. PhD diss. avtoreferati diss. avtoreferati.–Toshkent, 2025. –51b.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy - tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq F-1-77-raqamli "Janubiy Orol bo'yi ekologik sharoitida Shimoliy-g'arbiy O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy jadal rivojlantirishning mintaqaviy strategiyasi, metodologiyasi va metodikasi (Quyil Amudaryo iqtisodiy tumani misolida)" mavzusidagi fundamental ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatning mazmun va mohiyatini o'rganish;  
qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni rivojlantirish va samadorligini baholashning ilmiy va nazariy asoslarini tahlil qilish;

qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni amaldagi holatini tahlil qilish;

qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning xorij tajribasini o'rganish;

qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyati samaradorligini baholash;

qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini tadqiq qilish;

qishloq xo'jaligida innovatsiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'llarini o'rganish;

qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekt**i sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar olingan.

**Tadqiqotning predmetini** qishloq xo'jaligi korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida qiyosiy tahlil, SWOT-analiz, tasviriy statistika, tizimlashtirish, mantiqiy va abstrakt fikrlash, monografik kuzatish, regression tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun innovatsion va konsalting markazlari (IKM)ga bo'lgan ehtiyojni hisoblash tartibi asosida mavjud qishloq xo'jaligi korxonalarini sonidan kelib chiqqan holda mikro ( $MH \leq 30$ ), kichik ( $30 < KH \leq 60$ ), o'rta ( $60 < O'H \leq 100$ ), yirik ( $YH \geq 130$ ) hududlardagi yetakchi korxonalar bazasidagi IKM (1; 2; 3; 4-5) hamda ixtisoslashuvi bo'yicha malakali maslahatchilarga talab (3; 5; 9; 10) miqdori asoslangan;

qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni jadallashtirish hamda ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining uzviyligini ta'minlash maqsadida sohada malakali maslahatchilarga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib hududiy axborot-konsalting markazlarini tashkil etish mexanizmi ilmiy asoslangan;

dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatiga innovatsion texnologiyalarning joriy etishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida innovatsion loyihalarni moliyalashtiruvchi maxsus jamg'arma tashkil qilish taklifi asoslangan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlanishi ta'sirida tarmoqda yaratilgan qo'shilgan qiymat hajmi o'zgarishining 2030-yilgacha bo'lgan prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

qishloq xo'jaligi korxonalarida innovatsion faoliyatni samaradorligini baholashda qishloq xo'jaligida resurslardan foydalanish samaradorligi Agricultural Productivity-AP, umumiy omillar mahsuldorligi Total Factor Productivity-TFP va yashil umumiy omillar samaradorligi (Green Total Factor Productivity-GTFP) ko'rsatkichlarni qo'llanishi tavsiya etilgan;

qishloq xo'jaligi korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktiv ishlanmalar borasidagi ishlarni kuchaytirishni rag'batlantirish tavsiya qilingan;

kichik fermerlar va dehqon xo'jaliklarida innovatsion texnologiyalar joriy etishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida raqamli qishloq xo'jaligi innovatsion jamg'armasini tashkil qilish taklif etilgan;

qishloq xo'jaligi korxonalarining innovatsion faoliyatni rivojlantirish ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlikni oshirish, ekologiyaga salbiy oqibatlarining minimallashtirishdan iboratligi ilmiy asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborotlar bazasi rasmiy manbalaridan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi hisobotlaridan, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalaridan olingan ma'lumotlarga asoslanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan nazariy xulosalar va uslubiy tavsiyalardan qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid tadqiqotlarning ilmiy apparatini yanada boyitish hamda uslubiy asoslarini kengaytirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy taklif va uslubiy tavsiyalardan qishloq xo'jaligi korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish samaradorligini ta'minlash bo'yicha normativ hujjatlarni, oliy o'quv yurtlarida "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti", "Suv xo'jaligi iqtisodiyoti", "Qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va texnologiyalarni qo'llash", "Innovatsion iqtisodiyot", "Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" kabi mutaxassislik fanlarning o'quv dasturlarini takomillashtirish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qishloq xo'jaligi korxonalarining innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha olingan ilmiy-amaliy natijalar asosida:

qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun innovatsion va konsalting markazlari (IKM)ga bo'lgan ehtiyojni hisoblash tartibi asosida mavjud qishloq xo'jaligi korxonalarini sonidan kelib chiqqan holda mikro ( $MH \leq 30$ ), kichik ( $30 < KH \leq 60$ ), o'rta ( $60 < O'H \leq 100$ ), yirik ( $YH \geq 130$ ) hududlardagi yetakchi korxonalar bazasidagi IKM (1; 2; 3; 4-5) hamda ixtisoslashuvi bo'yicha malakali maslahatchilarga talab (3; 5; 9; 10) miqdori bo'yicha taklifi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 8-avgustdagi 03/03-2936-son ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyalarni joriy etilishi Qoraqalpog'istonda faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklarida innovatsion faoliyat samaradorligini baholash jarayonlari soddalashtirish va innovatsion faoliyat natijadorligini majmuaviy tarzda aniq baholash imkonini bergan;

qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni jadallashtirish hamda ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining uzviylikini ta'minlash maqsadida sohada malakali maslahatchilarga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib hududiy axborot-konsalting markazlarini tashkil etish mexanizmi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 8-avgustdagi 03/03-2936-son ma'lumotnomasi). Ushbu mexanizmning amaliyotga joriy etilishi natijasida Qoraqalpog'istondagi mavjud qishloq xo'jaligi korxonalarida innovatsion texnologiyalar va bu sohada eng yaxshi amaliyotlarni keng targ'ib qilinishiga, kadrlar salohiyatini oshirishga, agrar soha rahbarlari, xodimlar va mutaxassislarining innovatsion yangiliklar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini hamda axborotga egaligini yanada oshirish imkonini yaratgan;

dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatiga innovatsion texnologiyalarning joriy etishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida innovatsion loyihalarni moliyalashtiruvchi maxsus jamg'arma tashkil qilish taklifi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 8-avgustdagi 03/03-2936-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga tatbiq etilishi dehqon xo'jaliklarida innovatsion yangiliklarni keng joriy etish imkoniyatlarini va mahsulot ishlab chiqarish hajmini ortishiga hamda ularda ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorliklarini yaxshilash imkonini bergan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlanishi ta'sirida tarmoqda yaratilgan qo'shilgan qiymat hajmi o'zgarishining 2030-yilgacha ishlab chiqilgan prognoz parametrlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025 yil 8 avgustdagi 03/03-2936-son ma'lumotnomasi). Ushbu prognozdan foydalanish orqali kelusida qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni rivojlanishiga ta'sir

qiluvchi omillarni hisobga olgan holda qisqa va uzoq muddatli rejalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 2 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlarida muhokama qilingan va ma'qullangan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya ishning asosiy g'oyasi, unda ilgari surilgan ilmiy fikr va mulohazalar asosida jami 14 ta, shundan 3 tasi respublika, 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda ilmiy maqola hamda 9 ta tezislar, shundan 7 tasi respublika, 2 tasi xalqaro anjumanlarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi jami 126 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan texnologiyalarini rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar, shuningdek, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «Qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatning nazariy asoslari» deb nomlangan birinchi bobida qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatning mohiyati va mazmuni, Qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning nazariy asoslari hamda Qishloq xo'jaligida innovatsiyalar samaradorligini baholashning ilmiy asoslari tadqiq etilgan va tegishli xulosalar shakllantirilgan.


Innovatsiya nazariyasi (1939-yil) asoschisi bo'lgan Schumpeterning ta'kidlashicha, innovatsiya-bu yangi turdagi tovarlar ishlab chiqarish va yangi bozorlarni vujudga kelishi, ishlab chiqarishda yangi metodlarni qo'llanishi yoki ishlab chiqarishning yangi strukturasi yaratishdir<sup>6</sup>. Ya'ni, iqtisodiy rivojlanish innovatsiyalarning tatbiq etilishiga asoslanib, bunda bevosita tadbirkorlik subyektlarida innovatsion faoliyatni amalga oshirish muhim hisoblanadi. Zamonaviy konsepsiyada qishloq xo'jaligi innovatsiyasi yangi turdagi yoki takomillashtirilgan mahsulot, jarayon, tizim yoki model sifatida ko'rsatib o'tilgan<sup>7</sup>. Mazkur konsepsiyaning asosida innovatsiyalar iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik naf olib kelishi to'g'risidagi g'oya yotadi. Wright va Shihlarning ta'kidlashicha, qishloq xo'jaligida innovatsiyalar ishlab chiqarishning miqdoriy va sifat jihatdan o'sishi, diversifikatsiyalash hamda qishloq xo'jalik mahsulotlari tannarxini

---

<sup>6</sup>Schumpeter J.A. 1939. 2004. Business cycles. a theoretical, historical and statistical analysis of the capitalist process. McGraw-Hill Book Company, London.;Weber, S. 2000. Innovation und schöpferische Zerstörung In: Schumpeter, J.A. (ed.). Fragen zu einem Leitbegriff moderner ökonomischer strategien. Wirtschaftsphilosophie I, 2000/2001. Sozialphilosophie des Ökonomischen Handelns, Fernuniversität Hagen, Hagen, Germany.

<sup>7</sup>Juan Carlos Barrientos-Fuentes1 and Ernst Berg. Impact assessment of agricultural innovations: A review. <https://www.researchgate.net/publication>.

pasaytirishga qaratilgan. Innovatsion mahsulot ishlab chiqarilgan holatda, innovatsion jarayonlar qishloq xo‘jaligida daromadlilik oshishiga olib kelgan innovatsiya g‘oyadan ushbu mahsulotning barcha bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Innovatsion jarayonlarning alohida samarasi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining unikal raqobat ustunliklarini shakllantirish orqali moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini oshirishdir. Qishloq xo‘jaligida innovatsion faoliyatini rivojlantirishda turli rag‘batlantirish mexanizmlarini qo‘llash, xususan, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, masalan, imtiyozli soliq rejimi, kreditlash, grant, loyiha hamda axborot-konstanting xizmatlari ko‘rsatish muhimdir. Innovatsion jarayon esa qo‘shilgan qiymat qo‘shish va yakuniy natija qiymatini oshirishga qaratilgan innovatsion faoliyatini amalga oshirish ketma-ketligidir.



**1-rasm. Qishloq xo‘jaligida innovatsion faoliyatni rivojlantirishni baholash tizimi<sup>8</sup>**

Organik qishloq xo‘jaligi - bu ekotizimni saqlagan holda tabiiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning innovatsion tizimidir. Bunda kimyoviy o‘g‘itlar, moddalar va genetik modifikatsiyalangan organizmlardan foydalanishni kamaytirib, dehqonchilikda organik o‘g‘itlar, zararkurandalarga qarshi biologik usullarni qo‘llash, sistemali qishloq xo‘jalik ekinlarini almashlab ekish, agrolandshaft dehqonchiligi, resurs tejovchi texnologiyalar vositasida hosildorlikni oshirishdir. Qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos jihatlari innovatsiyani rivojlanishiga ta’sir etadi: mavsumiylik va hududiy jihatlar; ishlab chiqarilgan mahsulotlarning

<sup>8</sup>O‘rganishlar asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlangan.

barchasi ham tovar hisoblanmasligi; ishlab chiqarish vositasi bo‘lgan yer inson mehnatining mahsuli emas va uning hajmini oshirish imkoniyati mavjud emas. Qishloq xo‘jaligida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga ta’sir etuvchi texnologik va tashkiliy-iqtisodiy omillarni asoslash va baholash ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish muhimdir (1-rasmga qarang).

Shuni ta’kidlash joizki, hududiy texnologik platforma organik qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga qaratilishi zarur bo‘lib, iqtisodchi olimlar tomonidan tavsiya qilinayotgan organik qishloq xo‘jaligi modeli resurslarni tejoyvchi texnologiyalar va aniq qishloq xo‘jaligi komponentlaridan iborat. Shuningdek, agrobiznes subyektlarining innovatsion faollik darajasini oshirish ko‘p jihatdan, agrar sohadagi hududiy innovatsion markazlar, oliygohlar, ilmiy-tadqiqot institutlarining samarali faoliyati natijalariga bog‘liq bo‘lib, o‘z navbatida, qishloq hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratilishi va aholi daromadlarini o‘sishga olib keladi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlarining innovatsion texnologiyalarni qo‘llash doirasidagi mutaxassislarni yetishmasligi sababli, malakali maslahatchilarga bo‘lgan yuqori talabning mavjudligi, hududiy qishloq xo‘jaligi innovatsion va konsalting markazlarini (IKM) tashkil etish zaruriyatini keltirib chiqargan. Jumladan, hududlar bo‘yicha qishloq xo‘jaligi innovatsion va konsalting markazlariga (IKM) talabni hisoblash chiqish quyidagicha amalga oshiriladi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Hududlardagi qishloq xo‘jaligi korxonalarini uchun innovatsion va konsalting markazlariga (IKM) bo‘lgan ehtiyojni hisoblash tartibi<sup>9</sup>

Hududlar	Qishloq xo‘jaligi korxonalarini soni	Yetakchi korxonalar bazasidagi IKM	Malakali maslahatchilarga talab			
			ixtisoslashuvi bo‘yicha			jami
			dehqonchilik	chorvachilik	iqtisodiyot va menejment	
mikro	30 tagacha	1	1	1	1	3
kichik	60 tagacha	2	2	2	1	5
o‘rta	100 tagacha	3	3	4	2	9
yirik	130 tagacha va undan yuqori	4 yoki 5	4	4	2	10

Aniq qishloq xo‘jaligi - bu dehqonchilik va chorvachilik va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha mahsulotlarni yetishtirish jarayonlariga doir ma’lumotlar bazasini shakllantirish, qayta ishlash tahlil qilish asosidagi boshqaruv qarorlari qabul qilishni qo‘llab-quvvatlashda boshqa ma’lumotlar bilan integratsiyasini ta’minlovchi raqamli boshqaruv tizimidir. Bugungi kunda dunyodagi mamlakatlarning innovatsion rivojlanish darajasini baholashda quyidagi reyting

<sup>9</sup>O‘rganishlar asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlangan.

ko'rsatkichlari Yevropa innovatsion tadqiqot ko'rsatkichlari tizimi (European Innovation Scoreboard, -EIS), Global innovatsiyalar indeksi (Global Innovation Index-GII), Xalqaro global raqobatbardoshlik indeksi (Global Competitiveness Index-GCI) mavjud. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida innovatsion rivojlanish darajasini baholashning strukturasi 4 ta asosiy indikatorlardan iborat bo'lib, ushbu indikatorlar doirasida Yevropa Ittifoqidagi har bir mamlakatning innovatsion tizimidagi o'zgarishlarning umumiy va o'ziga xos ko'rsatkichlari aniqlanadi. Qishloq xo'jaligi mahsuldorligi - bu qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning asosiy omillari yer va mehnat kapitalini o'z ichiga olgan resurslar samaradorligining keng qamrovli ko'rsatkichi hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval

### Qishloq xo'jaligi mahsuldorligi ko'rsatkichlarini tahlili<sup>10</sup>

Ko'rsatkichlar	Olib borilgan tadqiqotlarning natijalari
AP	1. Sug'urta va ifloslanishni nazorati qishloq xo'jaligidagi mahsuldorlikni oshiradi. 2. Ekinlar sug'urtasi qishloq xo'jaligi mahsuldorligiga ta'siri ijobiy. 3. Texnologik taraqqiyot qishloq xo'jaligi mahsuldorligining o'sishiga turtki beradi. 4. Uglarod chiqindilariga ruxsatnomalar savdosi siyosati qishloq xo'jaligi mahsuldorligini o'sishiga olib keladi. 5. Yerga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi guvohnomalar (sertifikatlar) qishloq xo'jaligi mahsuldorligini oshiradi. 6. Atrof-muhitga oid reglamentlar texnologik innovatsiyalardan ko'ra qishloq xo'jaligi mahsuldorligiga kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. 7. Raqamli moliyaviy imkoniyatlar qishloq xo'jaligi mahsuldorligini oshiradi.
TFP	1. Texnologiya va investitsiyalarning qishloq xo'jaligida yuqori mahsulot ishlab chiqarishga olib kelishi tahlil qilinadi. 2. Resurs sarfini oshirmasdan iqtisodiy o'sish uchun resurslardan foydalanishni optimallashtiradi.
GTFP	1. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini baholash uchun kompleks metodologiyani taklif qiladi. 2. Mahsuldorlikni o'sishi ba atrof-muhitni muhofaza qilish o'rtasidagi balansni ta'minlaydi.


Qishloq xo'jaligi mahsuldorligi (Agricultural Productivity-AP)- qishloq xo'jaligida resurslardan foydalanish samaradorligini o'lchaydi. Umumiy omillar mahsuldorligi (Total Factor Productivity-TFP), iqtisodiyotning turli tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini baholaydi. Yashil umumiy omillar samaradorligi (Green Total Factor Productivity-GTFP) ekologik barqarorlikni qo'shadi, ya'ni resurslardan foydalanishda ekologik barqarorlikni (atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish) nazarda tutadi.

Dissertatsiyaning «**Qishloq xo'jaligida innovatsiyalarni tijoratlashtirish tendensiyalari va rag'batlantirish usullarining tahlili**» deb nomlangan ikkinchi bobida qishloq xo'jaligi korxonalarining innovatsion faoliyatini amaldagi holati, qishloq xo'jaligi korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning xorij tajribasi tahlili va qishloq xo'jaligi korxonalarining innovatsion faoliyat samaradorligi baholanib, ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirilgan.

Respublikada qishloq xo'jaligi tarmog'ida faoliyat ko'rsatayotgan agrobiznes subyektlarining toifalari bo'yicha statistik ma'lumotlarni ko'rib chiqadigan


<sup>10</sup>O'rganishlar asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlangan.

bo'lsak, barcha turdagi yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining katta qismi asosan dehqon xo'jaliklari va fermer xo'jaliklari xissasiga to'g'ri keladi (2-rasm).



**2-rasm. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida korxonalar ulushini dinamikasi<sup>11</sup>, foizda**

Tahlil ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jalik tarmog'ida yaratilgan qo'shilgan qiymat hajmi o'sib borgan bo'lsada, tarmoqlar bo'yicha solishtirganda qishloq xo'jaligining yaratgan qo'shilgan qiymat ulushini kamayib borganligini kuzatish mumkin (3-rasm).



**3-rasm. Qishloq xo'jaligida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymati hajmi va ulushini dinamikasi<sup>12</sup>**

Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni qo'llanishi amaliyoti doirasida Netafim Smart Solution xorijiy kompaniyasining sug'orishning

<sup>11</sup>O'rganishlar asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlangan.

<sup>12</sup>O'rganishlar asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlangan.

an'anaviy usuli va suv tejevchi texnologiyalardan hisoblangan tomchilatib sug'orish usuli bo'yicha dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini qiyosiy tahlili amalga oshirilgan (3-jadval).

### 3-jadval

#### Suv tejevchi texnologiya bo'yicha iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari (0,05 ga)<sup>13</sup>

№	Ekin	An'anaviy usulda		Tomchilatib sug'orishda		Daromadning ortishi	
		hosil (kg)	daromad (AQSH dollari)	hosil (kg)	daromad (AQSH dollari)	(AQSH dollari)	(Nisbiy, %)
1	Pomidor	2000	1215	7200	6171	4956	508
2	Poliz ekinlari	2000	999	2950	1685	686	167
3	Baqlajon	3000	1392	8150	4657	3265	335
4	Ko'katlar	2000	928	7800	5013	4085	540
5	Karam	3000	1070	11200	4800	3730	449

Paxtani yetishtrish xarajatlarini taxminan 2 baravar miqdorida qisqarishi va hosildorlikni 7,5 s/ga oshishi hisobiga olingan foyda miqdori 58,5 mln. so'mga, rentabellik darajasi esa 12 foizga o'sgan (4-jadval).

### 4-jadval

#### Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xo'jayli tumanida joylashgan "Bekimbetov Nurimbet" fermer xo'jaligida suv tejevchi texnologiyani joriy etish bo'yicha samaradorlik tahlili<sup>14</sup>, ming. so'm

Ko'rsatkichlar	An'anaviy usulda	tomchilatib sug'orish usulida	Farqi, +, -
Mineral o'g'it	36000,0	20000,0	-16000,0
Yonilg'i moylash materiallari	27000,0	18000,0	-9000,0
Mexanizatsiya xizmatlari xarajatlari	6000,0	4000,0	-2000,0
Ish haqi	18000,0	9000,0	-9000,0
Boshqa xarajatlar	7500,0	4500,0	-3000,0
Jami ishlab chiqarish xarajatlari	94500,0	55500,0	-39000,0
Tomchilatib sug'orish uchun ketgan jami investitsiya	-	375000,0	
ajratilgan subsidiya	-	112500,0	
Bir yillik xarajat (ajratilgan subsidiyani inobatga olgan holda (5 yilda qoplanishi)	-	52500,0	
Jami xarajat	94500,0	108000,0	13500,0
Hosildorlik s/ga	30,0	37,5	7,5
1 ga ekin maydondan daromad	15600,0	27300,0	11700,0
Foyda	234000,0	292500,0	58500,0
Rentabellik, %	50	62	12

<sup>13</sup>Netafim Smart Solution| MChJ xorijiy kompaniyasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

<sup>14</sup>Xo'jayli tumanida joylashgan "Bekimbetov Nurimbet" fermer xo'jaligining ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Soliq qonunchiligiga ko'ra, qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari qo'llanilgan oydan ushbu texnologiyalar o'rnatilgan yer maydonlari besh yil muddatga yer solig'i to'lashdan ozod qilingan. Qo'shimcha olingan bir birlik mahsulot hisobiga olingan qo'shimcha daromad: marjinal daromad (MR)= $\Delta TR(\text{qo'shimcha daromad})/\Delta Q(\text{qo'shimcha olingan mahsulot miqdori})=1560$  ming so'm.

Dunyodagi rivojlangan aksariyat mamlakatlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi agrobiznes subyektlarining innovatsion faolligini oshirishda soliq imtiyozlari, amortizatsiya siyosati, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarni bevosita budjetdan subsidiyalash kabi rag'batlantirish usullari keng qo'llaniladi. Masalan, AQSHda qishloq xo'jaligi korxonalarining soliq solishdan ozod qilingan foydasini 40-60 foizi ITTKIlarga yo'naltiriladi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) mamlakatlarida qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni rivojlantirishda soliq imtiyozlari keng qo'llaniladi (5-jadval).

### 5-jadval

#### Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) mamlakatlarida qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining tahlili <sup>15</sup>

Mamlakat	Soliq krediti	Soliq chegirmasi	daromad solig'i imtiyozlari
Avstriya	ITTKI xarajatlarining 5,27 %	ITTKI xarajatlarining 10 % xarajatlarining o'sishining 35% (3 yil)	qo'llanilmagan
Belgiya	ITTKI xarajatlarining 5,27 %	ITTKI xarajatlarining 15,5 %	80%
Fransiya	ITTKI xarajatlarining 30%	qo'llanilmagan	1-yilda 100%, 5-yilda 80%, 6-yilda 70%, 7-yilda 60%, 8-yilda 50%
Norvegiya	ITTKI xarajatlarining 20%	qo'llanilmagan	qo'llanilmagan
Ispaniya	ITTKI xarajatlarining 25 % ITTKI xarajatlarining o'sishining 42 % (3 yil)	qo'llanilmagan	qo'llanilmagan
Buyuk britaniya	ITTKI xarajatlarining 10%	ITTKI xarajatlarining 15%	qo'llanilmagan
Niderlandiya	qo'llanilmagan	ITTKI xarajatlarning 54%	38%

<sup>15</sup>O'rganishlar asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlangan.

Qishloq xo'jaligiga innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni joriy etish muammolari va imkoniyatlarini baholash uchun SWOT tahlil amalga oshirilgan. SWOT tahlil Kanada, Gollandiya, Germaniya, Yaponiya, Avstraliya va Xitoy kabi mamlakatlarda qishloq xo'jaligidagi raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar qanday qo'llanilayotgani asosida o'tkazilgan (6-jadval).

**6-jadval**

**Qishloq xo'jaligidagi raqamlashtirish jarayonlarining SWOT tahlili<sup>16</sup>**

<b>Kuchli (S)</b>	<b>Zaif (W)</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>▪ sun'iy intellekt texnologiyalari orqali mahsuldorlik va rentabellikni oshirish hamda xarajatlarni kamaytirish;</li> <li>▪ mahsulot sifatining oshishi;</li> <li>▪ bilim darajasini oshishi, biznes jarayon va qaror qabul qilishni optimallashtirish;</li> <li>▪ yangi kasb va ish o'rinlarining paydo bo'lishi;</li> <li>▪ bozorning barcha ishtirokchilari zaruriy va ishonchli ma'lumotlarni olishi;</li> <li>▪ qishloq xo'jaligi ta'lim muassasalari va boshqa ilmiy-tadqiqot institutlarining mavjudligi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>▪ sun'iy intellekt texnologiyalarini tadqiq qilish va joriy etish uchun investitsiyalarning yo'qligi;</li> <li>▪ texnologiyani amaliyotga qo'llash muddati;</li> <li>▪ malakali kadrlar yetishmasligi;</li> <li>▪ texnologiyalarni tatbiq qilinishi bo'yicha davlat tomonidan yetarlicha qo'llab-quvvatlanmasligi, zaruriy raqamli texnologiyalarning yuqori qiymati, yuqori energiya xarajatlari.</li> </ul>
<b>Imkoniyatlar (O)</b>	<b>Tahdidlar (T)</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>▪ qishloq xo'jaligidagi texnologik yutuqlar;</li> <li>▪ ishlab chiqarish jarayonlarini va hisbotlarni o'to'liq raqamlashtirish;</li> <li>▪ raqobatbardoshligini oshirish;</li> <li>▪ riskni kamaytirish va iqlim o'zgarishiga moslashuv;</li> <li>▪ iqtisodiyotning yuqori texnologiyali sektorida qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish;</li> <li>▪ mahsulotlarni iste'molchiga yetkazib berish zanjirini soddalashtirish;</li> <li>▪ innovatsion klasterlarni yaratish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>▪ raqamli texnologiyalar sohasidagi tadqiqotlar darajasini pastligi;</li> <li>▪ yuqori foiz stavkalari;</li> <li>▪ IT-mutaxassislari va muhandislarning etishmasligi;</li> <li>▪ intellektual mulk huquqlarining zaif himoyasi, texnologiyalarni tijoratlashtirish;</li> <li>▪ yuqori narx, oqibatlarining noaniqligi va samaradorligini aniqlashdagi qiyinchiliklar;</li> <li>▪ mahsulotlarni sertifikatlash va moliyaviy yordamdagi muammolar;</li> <li>▪ qishloq xo'jaligi hududlari o'rtasida texnologik farqlanish;</li> <li>▪ sun'iy intellekt texnologiyalari sohasida hududlarda savodxonlikni pastligi;</li> <li>▪ xorijiy komponentlariga bog'liqlik.</li> </ul>

